

## ALISHER NAVOIYNING O‘LMAS MEROSI

**Ibragimova Manzura Mahmasiddiq qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika institut talabasi

E-mail: [ibragimovamanzora@gmail.com](mailto:ibragimovamanzora@gmail.com)[Tel: +998994838206](tel:+998994838206)

**Annatsiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodining bebaho merosi va uning o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan ulkan hissasi tahlil etiladi. Navoiy asarlarining ma’naviy va axloqiy ahamiyatini, ularning bugungi kunda ham dolzarbligini yoritib beradi. Shuningdek, maqolada shoirning g‘azal va falsafiy asarlari orqali insoniy qadriyatlarni ulug‘langanligi, adabiyot va madaniyat taraqqiyotiga ta’siri batafsil yoritilgan. Navoiyning o‘z davrining ijtimoiy, madaniy va ilmiy muhitida shakllanishi, ilm-fanga bo‘lgan qiziqishi va insoniy fazilatlari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Alisher Navoiyning hayot yo‘li, ijodiy faoliyati shuningdek yoshligida shakllangan dunyoqarashi va uning yuksak insoniy qadriyatlarini ta’kidlaydi.

**Kalit so‘zlar.** Lison ut-tayr, Xazoiyn ul-maoniy, Mantiq ut-tayr, Chor devon, Munshoat.

**Abstract.** This article analyzes the invaluable heritage of Alisher Navoi's work and his great contribution to Uzbek literature. It highlights the spiritual and moral significance of Navoi's works, their relevance today. The article also discusses in detail the glorification of human values through the poet's ghazal and philosophical works, his influence on the development of literature and culture. Information is provided about Navoi's formation in the social, cultural and scientific environment of his time, his interest in science and human qualities. It highlights Alisher Navoi's life path, creative activity, as well as the worldview formed in his youth and his high human values.

**Keywords:** Lison ut-tayr, Khazoyin ul-maoni, Mantiq ut-tayr, Chor devan, Munshoat.

**Абстрактный.** В статье анализируется бесценное наследие творчества Алишера Навои и его большой вклад в узбекскую литературу. Подчеркивается духовно-философская значимость произведений Навои и их актуальность в наши дни. В статье также подробно рассматривается воспевание поэтом общечеловеческих ценностей через его газели и философские произведения, а также его влияние на развитие литературы и культуры. Приведены сведения о воспитании Навои в общественной, культурной и научной среде своего времени, его интересе к науке, его человеческих качествах. В нем освещается жизнь и творчество Алишера Навои, а также сформированное в юности мировоззрение и высокие человеческие ценности.

*Ключевые слова. Лисон ут-тайр, Хазойин ул-маони, Мантык ут-тайр, Чор деван, Муниоат*

**Kirish.** Buyuk mutafakkir, so‘z mulking sultoni Alisher Navoiy 1441- yil 9-fevralda Xuroson o‘lkasining poytaxti Hirotida tavallud topgan. Zamondoshlari uni “ Nizomiddin Mir Alisher” deb ulug‘laganlar. “ Nizomiddin”- din nizomi deganidir. Ko‘pincha mansab egalariga nisbatan aytilgan “mir”-amir demakdir. Chunki u Husayn Boyqaro saroyida eng nufuzli amir bo‘lgan. Alisher Navoiy bolalikdan ma‘rifatli oila muhitida tarbiya topgan. Otasi G‘iyosiddin Muhammad temuriylarga yaqin amaldorlardan bo‘lib, o‘z davrining obro‘li va ma‘rifatli kishilaridan sanalgan. Onasi Kobul amirzodalaridan Shayx Abu Said Changning qizi bo‘lgan. Alisher Navoiyning tog‘alari Mir Said Kobuliy yaxshi shoir, Muhammad Ali G‘aribiy shoir, sozanda va xattot bo‘lgan.[1]

Ota-onasi yosh Alisherning kitobga havasi kuchliligini nazarda tutib, uni 4 yoshdan sal o‘tganda maktabga beradilar. Maktabda u bo‘ljak podshoh Husayn Boyqaro bilan birga o‘qiydi va birga tarbiyalanadi. Xondamir yozganidek Alisher “oz vaqt ichida o‘z tengqurlaridan ilgarilab ketadi. Nozik tabining soflik va sog‘lomlik ovozi olamga yoyiladi va muborak fikrining dadilligi haqida so‘zlar xalq orasida og‘izdan- og‘izga ko‘chib yuradi”. [2]

Alisher Navoiyning maktab tahsili, bolalik qiziqishlari haqida o‘z asarlarida ma‘lumotlar berib o‘tilgan. Maktabda u Qur‘oni Karim mutolasidan so‘ng fors-tojik shoirlarini ijodini ham sevib o‘qiy boshlagan. “Lison ut-tayr” dostonida shoir o‘zining maktab yillarini tasvirlar ekan, Shayx Sa‘diyning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlarini sevib o‘qiganini, ayniqsa, Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoniga mehri o‘zgacha bo‘lganligini, qayta-qayta o‘qish natijasida bu dostonni yod olganligi keltiradi.[3]

O‘n besh yoshlarida Alisher Navoiy ikki tilda ijod qiluvchi “Zullisonayn”shoir sifatida taniladi va u o‘z davrining yetuk shoirlari diqqatini torta boshlaydi.

Tarixchi Xondamirning xabar berishiga ko‘ra Alisher Navoiy yigitlik yillaridayoq, Lutfiyning yuqori bahosi va tahsiniga sazovor bo‘lgan.

Orazin yopqoch ko‘zindin sochilur har lahza yosh,

Bo‘ylakim paydo bo‘lur yulduz nihon bo‘lg‘och quyosh.

Mazkur g‘azalining yuksak badiiy mahorat namunasi ekanligini tan olgan Lutfiy mubolag‘a bo‘lsa-da, “agar muyassar bo‘lsa edi, o‘zimning o‘n-o‘n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu g‘azalga almashtirardim va bu ishning yuzaga chiqarishini zo‘r muvaffaqiyat hisoblardim”, - deb baholaydi. [4]

**Asosiy qism.** Alisher Navoiy she‘riyati o‘zbek lirikasining eng go‘zal namunalari bo‘lib, unda turkiy va forsiy she‘riyat an‘analari mujassamlashgan. Betakror iste‘dod egasi o‘zining

nafis va yuksak san’atkorlik bilan yozilgan she’lari bilan turkiy adabiyotni olamga mashhur qildi. U o’zigacha bo’lgan turkiy she’riyatni mahorat bilan takomillashtirdi. Alisher Navoiyning turkiy she’riyatga qo’shgan hissasi janrlar sonining kengaygani va mavjud janrlarning yanada takomillashganida kuzatiladi. Shoirgacha bo’lgan turkiy she’riyatda g’azal, qit’a, masnaviy, ruboiy singari janrlarda ijod qilgan. Shoir lirik turining 16 ta janrda mahorat bilan ijod qilgan va bu janrlarning go’zal namunalarini yaratgan. Alisher Navoiyning o’zbek she’riyati rivojiga qo’shgan hissasi o’zbek she’riyatining mavzu doirasini kengaytirganida ko’rinadi. Shoirgacha bo’lgan davrda ishqiy mavzu g’azalchilikning yetakchi mavzusi bo’lgan. Navoiy esa ishqiy mavzu bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-ta’limiy, axloqiy-didaktik, peyzaj tasviri kabilarni o’zbek she’riyatiga olib kiradi va bu mavzularda betakror she’rlar yaratadi [5].

Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” (Ma’nolar xazinas) devoni uning turkiy tildagi 3132 she’rni o’z ichiga olgan. Navoiyshunoslar tomonidan keltirilishicha, 1492-1498-yillar orasida tuzilgan. Adabiyotshunos A.Abdug’afuruv ushbu majmuaning tuzilish sanasi haqida 4 devonda o’rin olgan she’rlarda ham biror dalil yo’qligini aytadi. Olimlarning fikricha, tadqiqotchilar, afidan “Xamsat ul-mutahayyirn”, “Munshoat “ kabi asarlardagi ma’lumotlarga, shuningdek debochadagi sharh-izohlarga tayanib, devonni bu davrda tuzilgan ko’rsatadilar. Ushbu devon “Chor devon” deb ham yuritilib unda shoirning 16 lirik janrga mansub turkiy she’rlari jamlangan. “Xazoyin ul-maoniy” devon tuzishning yuksak va mukammal namunasi bo’lib, u mundariyasi, tarkibiy tuzilishi, nomlanishi jihatidan ham o’ziga xos xususiyatlarga ega.

Alisher Nvoiy devonidagi she’rlarni davrlashtirishda va ularni tasnif etishda do’shti va ustozi Abdurahmon Jomiy maslahatiga binoan ish ko’radi. Devonning har birini inson umrining muayyan davriga mos keladigan nom bilan ataydi.

“Xazoyin ul-maoniy” debocha, 2600ta g’azal (har bir devonda 650tadan), 133ta ruboiy, 10ta muhammas, 4ta mustazot, 5ta musaddas, 4ta tarje’band, 210ta qit’a, 10ta lug’z, 52ta muammo, 13ta tuyuq, 86ta fard, 1ta masnaviy, shuningdek qasida, musamman, tarkiband, soqiynoma singari lirik janrlardan tarkib topgan. Devon debochasi har jihatdan puxta ilmiy risola bo’lib, Navoiy lirik ijodiyotining eng muhim jihatlarini to’g’ri mushohada qilishga imkon yaratadi. “Xazoyin ul-maoniy” devoni xronologiyasi nisbiy xaraktrga ega bo’lib, shoir umrining turli davrlariga oid she’rlar devonlarda aralash holda berilgan o’rinlar ham uchraydi. Alisher Nvoiyning o’zbek tilidagi lirik she’rlari, asosan, “Xazoyin ul-maoniy” da mujassam bo’lgan. Ammo devonga 1498-yilgacha bo’lgan she’rlar kirgan. Demak, Navoiy hayotining so’ngi ikki yili davomida yaratgan lirik she’rlari bu majmuaga kirmay qolgan. 1498-yildan keyin yaratgan va turli sabablarga ko’ra “Xazoyin ul- maoniy” ga kirmay qolgan she’rlar adabiyotshunos H.Sulaymon tomonidan nashr ettirilgan. Keyinchalik bu

she’rlar yangi topilganlari bilan to’ldirilib, F.Suloymonova “Ayyomi visol o’ldi yana” (Toshkent, 1996) nomi bilan to’plam holida e’lon qilgan.[6]

**Xulosa.** Alisher Navoiyning o’lmas merosi o’zbek adabiyotining beqiyos durdonalaridan biridir. Uning asarlari nafaqat o’z zamonida, balki hozirgi kunda ham katta ahamiyatga ega. U nafaqat o’zbek tilining, balki turkiy va forsiy tillarining ham yirik adibi sifatida tanilgan. Navoiyning eng yuksak merosi insonparvarlik, adolat va bilimga bo’lgan intilishdir. U o’z asarlarida ezgulik, bilim va madaniyatni targ’ib qilgan, xalqni uyg’otish va ijtimoiy adolatni ta’minlashga chaqirgan. Alisher Navoiy bugungi kunda ham nafaqat o’zbeklar, balki butun dunyo madaniyatida o’zining yuksak o’rnini saqlab qolgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qozoqboy Yo’ldoshev, Begali Qosimov, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo’ldoshbekov Adabiyot Toshkent . Sharq nashriyoti 2017-yil 168-172 bet
2. Xondamir “ Makorim ul-axloq” Toshkent 1967-yil 29-30 bet
3. Alisher Navoiy “ Mukammal asarlar to’plami” Toshkent . Fan nashriyoti 1996- yil
4. Xondamir. “ Makorim ul-axloq” Toshkent. 1967-yil 45-46 bet
5. Abdug’ofurov A. “Qalb qaridagi qadriyatlar” Toshkent. O’qituvchi nashriyoti, 1998-yil. 60-bet
6. Matyoqubova Tozagul “Alisher Navoiy hayoti va ijodi” Toshkent 2009.